
Savob ishni har kim, har kuni qilishi kerak!

Insoniylik fazilatlarining eng ezgusi odamlarga yaxshilik ulashishdir. Ajdodlarimiz aytganidek, savob ishni har kim, har kuni qilishi kerak.

Yurtimizda ijtimoiy himoyaga muhtoj oila vakillariga mahalla ahli, homiyalar tomonidan doimiy ko'mak berib kelinmoqda. Shu qatorda maktabga borib ta'lim olishi uchun imkoniyati cheklangan bolajonlarga yakka tartibda o'qishlari uchun ham yetarli shart-sharoitlar yaratib berilgan.

O'zbekiston yoshlar ittifoqi Qo'shtepa tuman Kengashi tomonidan tumandagi ijtimoiy himoyaga muhtoj hamda uyda ta'lim oluvchi yoshlarning xonadoniga tashrif uyushtirilib, bolajonlar bilan samimiy suhbat o'tkazildi va ularga issiq kiyimlar sovg'a qilindi.





2019-11-29 08:33:36